DLL – Deutsch lehren lernen „Nemis tilini o‘qitishni o‘rganish” dasturi asosida nemis tili o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha

HAMKORLIK SHARTNOMASI

Toshkent shahri “10” 10 2024

Qarshi davlat universiteti nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi rektor Nabiyev Dilmurod Xamidullayevich (keyingi o‘rinlarda **“Qarshi davlat universiteti”** deb yuritiladi) bir tomondan, «O‘zbekistondagi Gyote-Institut» nomidan, nizom asosida faoliyat yurituvchi, «O‘zbekistondagi Gyote-Institut» direktori Maren Nimayer (keyingi o‘rinlarda “Gyote-Instituti” deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” deb yuritiladi, mazkur hamkorlik shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnomaning asosiy mazmuni Gyote-Institutning “DLL-Deutsch lehren lernen“ – kafedra o‘qituvchilari uchun “Nemis tilini o‘qitishni o‘rganish” nomli onlayn malaka oshirish kursini tashkil etish va ularning malakasini oshirishda hamkorlik qilishdir.

2. Tomonlar majburiyatlari

2.1. **Qarshi davlat universitetining** majburiyatlari:

2.1.1. „O‘zaro ta’sir doirasida mashqlar va vazifalarning o‘rni” va “O‘quv va media materiallaridan foydalanish” fanlarining o‘quv rejasini “Nemis tilini o‘qitishni o‘rganish” nomli fan dasturi asosida amalga oshirish: DLL 4 Aufgaben, Übungen, Interaktion – (“Vazifalar, mashqlar, o’zaro ta’sir”) va DLL 5 Lehr- und Lernmedien – (“O‘quv va media materiallari”) asosida ishlab chiqish, universitetning Xorijiy tillar fakulteti ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlatish va 60230100- Filologiya va tillarni o‘qitish (nemis tili) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejalariga 2024 yilning sentabridan 2026 yil iyuniga qadar tadbiq etish.

2.1.2. Gyote-Institut bilan birgalikda universitetning o‘quv dasturlarini ommabop tadbirlar orqali targ‘ib qilish.

2.2. **Gyote institutning** majburiyatlari:

2.2.1. Universitet o‘qituvchilarini 2.1.1. da ko‘rsatilgan bakalavr dasturini amalga oshirishda ko‘maklashish;

2.2.2. Universitet o‘qituvchilari uchun DLL “Nemis tilini o‘qitishni o‘rganish” dasturiga bag‘ishlangan malaka oshirish kurslarini tashkillashtirish;

2.2.3. Kafedraning 2 nafar o‘qituvchilarini DLL guvohnoma beruvchi trening seminarlarida bepul o‘qitish;

2.2.4. Universitet o‘qituvchilarini DLL - “Nemis tilini o‘qitishni o‘rganish” asosidagi fanlarni o‘qitishda metodik-didaktik maslahatlar berish;

CamScanner yordamida skanerlangan

2.2.5. Universitet talabalariga Gyote institutining DLL loyihasida ishtiroki haqidagi guvohnoma yoki sertifikat taqdim qilish va DLL loyihasini amaliyotda tadbiq qilish ko‘zda tutiladi.

3. Hamkorlik a’zolari

3.1. **Tomonlar** qo‘mita tuzishga kelishib oladilar, unda **Tomonlar** teng ovozlar bilan vakillik qiladilar.

3.2. Muvofiqlashturuvchi qo‘mita DLL modullari assosida dasturlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarda ma’suldirlar.

3.3. **Qarshi davlat universiteti** tomonidan hamkorlik a’zolari:

- f.f.d. (PhD), dosent A.Y.Mahmudov, nemis tili va adabiyoti kafedrasi mudiri;
- f.f.d. (PhD) N.B.Mahmudova nemis tili va adabiyoti kafedrasi dosenti;
- J.E.Ruziyeva nemis tili va adabiyoti kafedrasi o’qituvchisi.

3.4. O‘zbekistondagi Gyote-Instituti tomonidan xamkorlik a’zolari:

- D.Muxammadaminova, O‘zbekistondagi **Gyote-Instituti** til bo‘limi rahbari;
- f.f.n. S.Turakulova, loyiha kordinatori;
- G’.Xafizov, nemis tili sohasida hamkorlik bo’limi xodimi.

3.5. Guruh a’zolari imkoniyat doirasida ekspertlarni jalb qilishlari mumkin. (Masalan, fan ekspertlari, DAAD vakillari va boshqalar).

4. Xavfsizlik va himoyani ta’minlash xuquqlari

4.1.“DLL–Nemis tilini o‘qitishni o‘rganish” (DLL- Deutsch lehren lernen) nomli malaka oshirish va qo‘shimcha ta’lim majmualariga Gyote-Instituti mualliflik xuquqiga egadir.

4.2. Gyote-Instituti Qarshi davlat universitetiga “DLL–Nemis tilini o‘qitishni o‘rganish” (DLL- Deutsch lehren lernen) turkumidagi materiallardan foydalanish huquqini beradi, ularning mazmuni va muddati ushbu shartnoma bilan cheklangan.

5. Amal qilish muddati

5.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Imzolanish kuni sifatida mazkur shartnomaning birinchi sahifasidagi kun hisoblanadi.

Shartnoma 2 (ikki) yil muddatda amal qiladi.

“Tomonlar” shartnomaning amal qilish muddatini muddatidan oldin yoki keyin tugatishni xabar bersalar o‘sha kundan boshlab shartnoma to‘xtatiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

5.2. Mazkur shartnoma tugatiladi:
- tomonlar roziligiga ko‘ra;
- sud qarori natijasiga ko‘ra;
- fors-major holatlarda;
- fuqarolik qonunchiligiga muvofiq shartnoma tuzuvchi tomonlardan biri tomonidan bekor qilingan taqdirda.

5.3.Shartnoma tomonlar qaroriga ko‘ra o‘zgartiriladi yoki to‘ldiriladi.

Barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar, agar ular ikki ahdlashuvchi tomonning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan ko‘shimcha shartnomada qayd etilgan bo‘lsa, haqiqiy xisoblanadi.

5.4. Mazkur shartnoma ikki tomonlama bir xil konuniy kuchga ega bo‘lgan o‘zbek va nemis tillarida tuzildi. Har bir muassasa shartnoma nusxasiga ega bo‘ladi.

5.5. Shartnoma tuzish davrida paydo bo‘lgan barcha bahs munozaralar va fikrlar xilma xilligi inobatga olindi. Agar tomonlar fikrlar xilma xilligi sababli fors-major yuzaga kelsa, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Qarshi davlat universitetida ichki tartibda kelishib olinadi.

6. Shartnoma hamkorlariga ma’lumotlar

Qarshi davlat universiteti	Goethe-Institut Taschkent
Adresse: Kuchabog 17 Moliya vazirligi g‘aznachiligi 40011086010401709410035003 INN: 200671933 Qarshi davlat universiteti Universitet x/r: 23402000300100000010 INN: 201122919 MFO: 00014	Adresse: Amir Temur 42 k‘ochasi 100000 Toshkentdagi Gyote-Instituti X/R - 20296000903965440001 INN: 202700561 MFO: 01088
Tel. + 998752200210	Tel. + 998 78 140 14 70 Fax + 998 78 140 14 71
Qarshi davlat universiteti rektori	Gyote-Institut direktori
D.X.Nabiyev	Maren Nimayer
Stempelabdruck	Stempelabdruck

CamScanner yordamida skanerlangan